

**МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГ`ИЧ ТА’ЛИМДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ
О’РГАТИШДА АТРОФ-МУХИТ (OUTDOOR LEARNING)
ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИННОВАЦИОН ЙОНДАШУВИ.**

*Xolmatova Hamrobi Shermurod qizi
Samarqand davlat chet tillari instituti
Ingliz tili fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda
Xorijiy til ingliz tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya, Mazkur maqolada maktabgacha va boshlang`ich ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatishda ochiq havoda (outdoor learning) vositalaridan foydalanishning innovatsion yondashuvi yoritiladi. Tabiiy muhit — bog'lar, o`yin maydonchalar, sayr yo`laklari — bolalarning fonetik anglash, talaffuz, eslab qolish va ijodiy fikrlash kabi til ko`nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishi misollar orqali tahlil qilinadi. Maqola Vygotsky va Piagetning psixolingvistik yondashuvlariga asoslanadi va zamonaviy dars jarayonida ularning samaradorligini yoritadi.

Kalit so`zlar : Maktabgacha ta'lim, ochiq havo darslari, atrof-muhit, innovatsion metod, fonetik anglash, talaffuz, ijodiy fikrlash.

Аннотация, в статье рассматривается инновационный подход к использованию возможностей окружающей среды (outdoor learning) в процессе обучения английскому языку в дошкольном образовании. Природные условия — парки, игровые площадки, прогулочные зоны — способствуют развитию фонетического восприятия, произношения, памяти и креативного мышления у детей. Теоретической базой исследования служат психолингвистические идеи Выготского и Пиаже, подчеркивается актуальность метода в современных образовательных практиках.

Ключевые слова: Дошкольное образование, занятия на открытом воздухе, окружающая среда, инновационные методы, фонетическое восприятие, произношение, креативное мышление

Annotation: This article examines an innovative approach to using outdoor learning tools in English language instruction in preschool education. Natural settings such as gardens, playgrounds, and walking trails are analyzed for their effectiveness in enhancing children's phonetic awareness, pronunciation, memory retention, and creative thinking. The article is grounded in the psycholinguistic theories of Vygotsky and Piaget and highlights the relevance of this method in contemporary educational practices.

Key words: Preschool education, , outdoor lessons, environment, innovative methods, phonetic awareness, pronunciation, creative thinking.

Kirish

XXI asrda ta'lim tizimidagi tub o`zgarishlar maktabgacha ta'lim yo`nalishida ham o`z aksini topmoqda. Ingliz tilini erta yoshdan o`rgatish bo`yicha olib borilayotgan izlanishlar shuni ko`rsatmoqdaki, bolalar uchun sun'iy emas, balki tabiiy, hayotiy sharoitlarda o`quv muhiti yaratish ularning tilga bo`lgan qiziqishini oshiradi va o`zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan "outdoor learning" – ochiq muhitda o`qitish yondashuvi innovatsion vosita sifatida e'tiborni tortmoqda.

Asosiy qism

- Outdoor learning mohiyati va nazariy asoslari.

Outdoor learning (tashqi muhitda o`rganish) bu dars jarayonlarini sinfxonalardan tashqarida, ya'ni ochiq havoda, bog'larda, o`yin maydonchalarida, tabiat qo`ynida olib borish orqali bilim va ko`nikmalarni shakllantirish usulidir. Ushbu yondashuv Piaget va Vygotsky kabi konstruktivist pedagoglar nazariyasiga asoslanadi. Piaget fikricha, bola tashqi muhit bilan bevosita muloqot qilish orqali o`z bilimi va tafakkurini rivojlantiradi[1,86].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tashqi muhitdan foydalanishning bir nechta afzallikkabi quyida yoritilib beriladi.

- Ijodiy fikrlash: Ochiq makonda tasavvur kuchi orqali yangi so`zlar va iboralarni kontekstda o`rganish.
- Esda saqlash: Real voqealar va harakatlar bilan bog'liq til o`rganish uzoq muddatli xotirani mustahkamlaydi.
- Ko`p sezgilar ishtiroki: Vizual, audial va kinestetik sezgilarni jalb qilish orqali til o`rganish samarasini ortadi.

Innovatsion metodlar: amaliy misollar

Tabiat darslari: Bog'da yurib, o`simlik va hayvonlar nomlarini ingliz tilida aytish va ularni tasniflash (masalan: "This is a butterfly. It can fly.") Ochiq havoda rolli o`yinlar: Masalan, bolalar o`zlarini sayohatchilar deb tasavvur qilib, xarita orqali yo'l topib, yo'l davomida inglizcha so`zlarni aytishadi. Natijada ular ingliz tilida yo`lanishlar ingliz tilida qanday nomlanishini o`rganishadi va real muhitda qo'llashadi[2,112].

Bu ularni ushbu soz`larni uzoq muddat davomida esda saqlashlariga katta yordam beradi.

Ovqatlanish paytida til o`rgatish: "picnic" shaklida tashkil etilgan darslar davomida bolalar ingliz tilida mevalar, idishlar nomi, iboralar: "Can I have an apple?", I would like a cup of tea, I want to eat meat kabi jumlalarni o`rganishadi.

"Nature Walk and Talk" metodi: O`qituvchi bolalarmi daraxtzor bo`ylab sayrga olib chiqadi. Har bir bola turli daraxt nomlari , burglar , qushlarning turlari yoki tosh topgach, u haqida gapishtirishga harakat qiladi yoki ustozlaridan u haqida bilib olishadi.

Masalan: "This leaf is green. It is from a big tree." This is a an apricot tree. Apricot is very useful for the heart, kabi jumlalar o`rganishadi.

"Object Hunt" o`yini: O`qituvchi ingliz tilida buyumlarni nomlaydi va bolalar ularni atrof-muhitdan topishga harakat qilishadi. Masalan: "Find something round and red" – bola qizil tosh yoki olmani topib, ingliz tilida nomlaydi. . " "Find something that can fly." Bola qush rasmi yoki o`yinchoq qushni topib aytadi: "A bird." "Find something green and small." Bola yashil tugma, barg yoki o`yinchoq topadi va aytadi: "A leaf." yoki "A green button" tarzida o`yin davom etadi.

"Weather Reporter" o`yini: Har kuni bittadan bola ob-havoni ingliz tilida tasvirlab beradi: "Today it is sunny. I see the sun and blue sky deb aytsa boshqasi today is very hot and the sun is shinning. Agar bu so`zlarni aytishga qiyinalishsa ular ustozlari orqasida so`zlarni real ob-havoga qarab aytishadi.

O`yin orqali o`rganish va outdoor learning integratsiyasi Outdoor learning mazmunida o`yin asosiy o`rinni egallaydi. Jumladan, "Treasure Hunt" – boylik izlash o`yini orqali ranglar, yo`nalishlar va buyum nomlarini o`rganish mumkin.

"Simon says" ochiq havoda: "Simon says touch a tree", "Simon says jump three times" – bu orqali bolalar buyruqlarni tushunish va bajarish orqali so`z boyligini oshiradi.

"Follow the leader" o`yini: Guruh sardori biror harakatni ingliz tilida aytadi va bajaradi, qolganlar uni takrorlaydi: "Clap your hands", "Run to the bench". Look at the sky.

Ushbu metodlardan foydalanish: til ko`nikmalarining tabiy shakllanishi, jamoaviylik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish, psixologik va fiziologik sog`liqka ijobiy ta`sir, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlashni rag`batlantirish kabi ko`nikmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari metodologiya nafaqat til o`rgatishga, balki bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa, Outdoor learning – bu nafaqat muqobil, balki kelajak ta`limining ajralmas qismiga aylanayotgan usullardan biridir. Bu yondashuv orqali til o`rganish nafaqat samarali, balki zavqli, mazmunli va bolalar ehtiyojiga mos bo`lib boradi. Maktabgacha ta`limda ushbu metodni keng joriy etish kelajak avlodning xorijiy tillarni o`rganishida kuchli til poydevorini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
2. Piaget, J. (2005). *The Language and Thought of the Child*. Routledge.
3. Maynard, T. (2007). *Forest Schools and Outdoor Learning in the Early Years*. SAGE Publications.

4. Whitebread, D., Basilio, M., Kuvalja, M., & Verma, M. (2012). The Importance of Play: A Report on the Value of Children’s Play. University of Cambridge.
5. Bilton, H. (2010). Outdoor Learning in the Early Years: Management and Innovation. Routledge.
6. Moyles, J. (2005). The Excellence of Play (2nd ed.). Open University Press.
7. Nuttall, J. (2013). Weaving Te Whāriki: Aotearoa New Zealand’s Early Childhood Curriculum Document in Theory and Practice. NZCER Press.
8. Waite, S. (Ed.). (2017). Children Learning Outside the Classroom: From Birth to Eleven. SAGE Publications.
9. Barton, G., & Baguley, M. (2017). The Palgrave Handbook of Global Arts Education. Palgrave Macmillan. (Chapter on Outdoor and Experiential Language Learning)
10. Wood, E. (2014). Play, Learning and the Early Childhood Curriculum (3rd ed.). SAGE Publications.